

Yadro fizikasi institutida “Kurchatov instituti” filiali ochilishi masalasi ko‘rib chiqildi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutiga Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, fizika-matematika fanlari doktori, professor, “Kurchatov instituti” Milliy tadqiqot markazi prezidenti Mixail Kovalchuk tashrif buyurdi.





Tashrif davomida ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, jumladan, qo'shma tadqiqotlar, kadrlar almashinuvi va qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, O'zbekistonda zamonaviy ilmiy infratuzilmani rivojlantirish va yadro fizikasiga oid ilg'or texnologiyalarni joriy etish borasida fikr almashildi. Tomonlar Yadro fizikasi institutida "Kurchatov instituti" Milliy tadqiqot markazining filialini ochish imkoniyatlarini ham muhokama qildilar. Bu loyiha amalga oshirilsa, O'zbekistonda yadro fizikasining rivojlanishiga, ilg'or ilmiy ishlanmalar yaratilishiga va yosh mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlar ochilishiga zamin yaratadi.

Uchrashuv yakunida ikki tomon o'rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlikni mustahkamlash, istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib olindi.